

**TA'LIMNI TASHKIL ETISH TIZIMLARI VA ULARNING
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

University of Management and Future Technologies universiteti

xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

Turdibekova Ruhshona

Anotatsiya: *Ushbu ilmiy ishda ta'limni tashkil etish tizimlari, ularning tarkibiy tuzulishi hamda funksional xususiyatlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda an'anaviy, kredit-modul, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan, masofaviy va aralash ta'lim tizimlarining pedagogik imkoniyatlari, tashkiliy-metodik mexanizmlari hamda samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganilgan. Ta'lim jarayonining sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvlar va boshqaruv strategiyalarining ta'lim tizimlari bilan o'zaro integratsiyasi ilmiy asoslangan holda yoritiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim tizimlarining zamonaviy talablarga mos takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi hamda ularning amaliyotda qo'llanishi bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *o'qitish usullari, an'anaviy (klassik) tizim, modullar tizimi, individual tizim, masofaviy tizim, blits o'qitish, kompyuter yordamida o'qitish, reproduktiv metod.*

Ta'limni tashkil etish tizimlari ta'limni loyihalash va boshqarishga yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan usullardir. Eng keng tarqalgan tizimlarga klassik ta'lim (an'anaviy), klass-dars tizimi, shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim (individual ta'lim) va loyihaviy ta'lim kiradi. Klassik tizimda o'qituvchi markazda bo'lib, barcha o'quvchilarga bir xil ma'lumot beradi. Klassik-dars tizimi o'ziga xos jadval, sinflarga bo'linish va o'quvchilarning baholanishi bilan ajralib turadi. Shaxsiga yo'naltirilgan ta'limda har bir o'quvchining o'z o'quv tempi va



ehtiyojlariga e'tibor beriladi. Loyihaviy ta'lim esa o'quvchilarning amaliy loyihalar ustida ishlashiga asoslanadi.

Modul asosida o'qitish tizimi. Bu ma'lum bir mavzu yoki ko'nikmani to'liq o'z ichiga oladigan mustaqil o'quv bo'lagi. Har bir modul o'quv maqsadlari, amaliy topshiriqlar, baholash mezonlari kabilarni o'z ichiga oladi.

Masofaviy o'qitish tizimi. Bu tizimda o'qituvchi va o'quvchi bir joyda bo'lmagan holda, internet va texnik vositalar orqali ta'lim jarayonini olib borishdir. Misol uchun onlayn platformalar orqali, video darslar, elektron darsliklar orqali va hokazolar.

Individual tizim. Bu har bir shaxsning ehtiyojlari, imkoniyatlari, maqsadlari va xususiyatlariga qarab ishlaydigan tizim hisoblanadi. Ya'ni qisqacha qilib aytganda umumiy, hammaga bir xil tartib o'rniga har bir odam uchun alohida yondashadi.

Blits o'qitish tizimi. Bu usul qisqa vaqt ichida kata hajmdagi ma'lumotni tez va ixcham tarzda yetkazib berishga asoslangan tezkor o'qitish tizimi hisoblanadi. "Blits" so'zi nemischadan olingan bo'lib "chaqmoq", "juda tez" degan ma'noni bildiradi.

Ta'lim metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatiga o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar amallar yoki usullar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi. Ta'lim metodlari ta'lim maqsadlarini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi. O'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan ta'lim metodlar majmuasi boshlang'ich sinflardan yuqori sinflarga o'tish asosida o'zgarib hamda murakkab hususiyat kasb etib boradi. Ushbu jarayonda ayrim metodlarni qo'llash chastotasi oshsa ayrim metodlarni qo'llashga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Ta'lim metodlaridan



foydalanish ko'lamini, holati o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog'liq holda o'zgaradi.

Reproduktiv ta'lim metodlari. Bu metod yuqorida keltirilgan metodlardan quyidagi unsurlarning mavjudligi bilan farqlanadi: o'qituvchining bilimlarni tushuntirishi, ularni o'quvchilarning yodida saqlashini ta'minlashi va qayta ishlab chiqishilardir. O'zlashtirilgan bilimlarning mustahkam bo'lishiga ularni ko'p marta takrorlash evaziga erishiladi. Mazkur metod ta'limning barcha bosqichlari, asosan, boshlang'ich sinflarda o'qish va yozish, arifmetik harakatlarni amalga oshirish ko'nikmalarini o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa. Tadqiqot davomida ta'limni tashkil etishning an'anaviy, modul, individual, masofaviy va blits o'qitish kabi asosiy tizimlari taqqoslab o'rganildi. Har bir tizimning tashkiliy-metodik tuzilishi, pedagogik imkoniyatlari va qo'llanish samaradorligi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va moslashuvchan ta'lim shakllarini integratsiya qilish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Reproductiv metodlar va boshqa o'qitish usullarining maqsadga muvofiqligi esa o'qituvchining metodik mahoratiga bog'liq. Umuman, tadqiqot ta'lim tizimlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xaydarov. S.A. (2025). Oilaviy tarbiyada va maktab tarbiyasida yuzaga keladigan risklar. 16-son. 9-11.
2. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
3. Хайдаров С. (2025). Oilalarda farzand tarbiyasiga ruhiy ta'sir etkazish. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
4. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.



5. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
6. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.
7. Khaydarov S.A. (2025). On analysis of family factors and social creativity issues in the study of the psychological portrait of educational institutions' leaders. Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology ISSN: 1001-4055 Vol. 46 No. 2.
8. Хайдаров С. (2025). Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati. 3 (9). 261-265.